



TILSHUNOSLIKNING FONETIKA BO'LIMI VA UNING ASOSIY
TUSHUNCHALARI

Avolova Diyora Xusniddin qizi

SamDChTI, Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili, 1-kurs talabasi

husniddinuroqboyev@gmail.com

+998503003348

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilshunoslikning asosiy bo'limlari, xususan fonetikaning o'rni va ahamiyati yoritilgan. Unda nutq tovushlarining artikulyatsion, akustik va auditor xususiyatlari, unli va undosh fonemalarning tasnifi hamda fonetik birliklarning vazifasi batafsil tushuntiriladi. Shuningdek, undoshlarning hosil bo'lish o'rni, usuli va jaranglilik belgilariga ko'ra bo'linishi, qo'sh undosh va qator undosh tushunchalari izohlanadi. Matnda bo'g'in va urg'u kabi fonetik kategoriyalar ham umumlashtirilib, so'z urg'usi va gap urg'usining nutqdagi roli ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, fonetika, fonema, unli tovushlar, undosh tovushlar, artikulyatsiya, jarangli undoshlar, jarangsiz undoshlar, bo'g'in, urg'u.

Abstract: This article highlights the main branches of linguistics, with a particular focus on the role and importance of phonetics. It explains the articulatory, acoustic and auditory properties of speech sounds, the classification of vowel and consonant phonemes and the functions of phonetic units in detail. It also describes how consonants are categorized according to their place and manner of articulation and by voicing, and it clarifies the concepts of consonant clusters with different adjacent consonants and double consonants with identical adjacent consonants. The text also summarizes phonetic categories such as the syllable and stress, and shows the roles of word stress and sentence stress in spoken language.

Keywords: linguistics, phonetics, phoneme, vowel sounds, consonant sounds, articulation, voiced consonants, voiceless consonants, syllable, stress.

Аннотация: В данной статье освещаются основные разделы языкознания, в частности роль и значение фонетики. Подробно объясняются артикуляционные, акустические и аудиторные свойства речевых звуков, классификация гласных и согласных фонем, а также функции фонетических единиц. Кроме того, рассматриваются место и способ образования согласных, их деление по признаку звонкости и глухости, а также разъясняются понятия сочетания разных согласных и двойных одинаковых согласных. В тексте также обобщены такие фонетические категории, как слог и ударение, и показана роль словесного и фразового ударения в речи.

Ключевые слова: языкознание, фонетика, фонема, гласные звуки, согласные звуки, артикуляция, звонкие согласные, глухие согласные, слог, ударение.






MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Kirish: Tasavvur qiling, dunyoda 6500 ga yaqil til bor bo'lib, har bir til o'z fonetikasiga ega [5]. Fonemalar majmuasi o'zbek tilida 6 ta unli va 23 ta undosh fonema mavjud bo'lsa, ba'zi tillarda, masalan, ingliz tilida 21ta unli va 24 ta undosh tovush mavjuddir [6]. Fonetika — tilshunoslikning nutq tovushlarini o'rganadigan asosiy bo'limi bo'lib, u nutqning artikulyatsion, akustik va auditor jihatlarini tahlil qiladi. Ushbu bo'lim nutq tovushlarining hosil bo'lish mexanizmi, ularning fonemalarga bo'linishi, tovushlarning jaranglilik va ritm xususiyatlarini o'rganadi. Fonetika 1886-yilda Xalqaro Fonetika Assotsiatsiyasining (IPA) tashkil topishi bilan tilshunoslikning mustaqil bo'limi sifatida tan olindi [9]. Bugungi kunda fonetika nafaqat talaffuz va bo'g'in tuzilishini, balki urg'u, intonatsiya va nutq ritmini o'rganish orqali tilni chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, fonetika til o'rganish, nutqni rivojlantirish va kommunikatsiya madaniyatini shakllantirishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Til haqidagi barcha ma'lumotlarni bo'lishadigan fan bu tilshunoslik yoki lingvistikadir. Tilshunoslik bo'limlari, avvalo, ikkiga bo'linadi: Mazmuniga ko'ra (fonetika, leksika, morfologiya, sintaksis) va qo'llanilishi ko'ra (alifbo, imlo, talaffuz, tinish belgilari, uslubiyat) [2]. Tilshunoslik uchun eng kerakli va nutqimiz uchun eng muhim hisoblangan bo'lim bu fonetika hisobladi. Fonetikada nutq tovushlarining fizik jihatlarini yani artikulyatsiya, akustika va auditoriya kabi xususiyatlari o'rganiladi. Undosh tovushlar — og'iz va bo'g'iz bo'shlig'ida turli to'siqlarga uchrab paydo bo'ladigan, tarkibi faqat shovqindan yoki ovoz va shovqindan iborat tovushlar. Fonetik tovushlar orqali namoyon bo'ladigan qism bu - fonema. O'zbek tilida tovushlar unli va undosh fonemalarga bo'linadi. Unli fonemalar hosil bo'lishda to'siqqa uchramaydi, ammo undosh fonemalar to'siqqa uchrashi bilan unli fonemadan farq qiladi. Unli fonemalar o'zbek tilida 6 ta: a, e, i, o, u, o'. Unlilar lablarning ishtirok etishiga ko'ra, tilning gorizontal harakatiga ko'ra va og'izning ochilish darajasiga ko'ra tavsiflanadi. Lablarning ishtirokiga ko'ra unlilar 2 ga bo'linadi [4]: lablangan unlilar (u, o', o) hamda lablanmagan unlilar (e, i, a). Tilning gorizontal harakatiga ko'ra ham 2 qismga ajratiladi: old qator unlilar (i, e,a) va orqa qator unlilari(u, o, o'). Og'izning ochilish darajasiga ko'ra 3 qism bilan tavsiflanadi: tor unlilar (u,i), o'rta tor yoki o'rta keng unlilar (e, o'), keng unlilar(a, o). Tilimizda 24 ta undosh fonema bor [3]. Fonetika bo'limida undosh tovushlar uch tomonlama tavsiflanadi: hosil bo'lish o'rniga ko'ra, hosil bo'lish usuliga ko'ra hamda ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra. Hosil bo'lish o'rniga ko'ra bo'lingan fonemalar yana kichik 3 ta bo'limchalardan tashkil topgan. Birinchisi - lab undoshlari. Lab undoshlari lab-lab undoshlari hamda lab- tish undoshlariga bo'linadi. Ikkinchisi - til undoshlari. Til undoshlari 4 ta kategoriya bo'yicha tavsiflanadi: til oldi, til o'rta, til orqa va chuqur til orqa. Uchinchisi - bo'g'iz undoshi. Hosil bo'lish usuliga ko'ra ham fonemalar 3 bo'limdan iborat: portlovchi, sirg'aluvchi, qorishiq. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra fonemalar jarangli va jarangsiz undoshlardan tashkil topgan. O'zbek tilshunosligining fonetika bo'limi o'rganuvchiga qator undosh hamda qo'sh undosh haqida ham ma'lumot beradi. Qo'sh undosh va qator undosh o'zi qanday tushuncha?





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS


Tilimizda ba'zan so'zlar ichida undosh tovushlar yonma-yon keladi. Agar yonma-yon kelgan undoshlar har xil bo'lsa, bu qo'sh undosh deyiladi. Masalan, sport, bank va part so'zlarida ikki xil undosh ketma-ket kelgan. Agar yonma-yon kelgan undoshlar bir xil bo'lsa, bu qator undosh deb ataladi. Masalan, xatti so'zida ikki "t" yonma-yon turibdi, massa so'zida esa ikki "s" ketma-ket kelgan [7]. Fonetika bo'limida nafaqat tovushlar, uning birliklari, xususiyatlari, turlari o'rganiladi, balki bu bo'limda bo'g'in hamda urg'u tushunchasi bo'yicha ham ko'p ma'lumot taqdim etiladi. Bo'g'in bir havo zarbi bilan aytilgan tovush yoki tovushlar birikmasidir. Fransuz tilshunosi M. Gammon 1929- yilda bo'g'in nutq artikulyatsiyasidagi muskullarning kuchlanishiga asoslangan, degan fikrni ilgari surgan [1]. Bo'g'in 2 turga bo'linadi: ochiq bo'g'in hamda yopiq bo'g'in. Urg'u ham bo'g'in kabi 2 ta turi mavjud. Bular: so'z urg'usi va gap urg'usi. So'z urg'usi deb so'z bo'g'inlaridan birining boshqalaridan kuchliroq, cho'ziqroq talaffuz qilinishiga aytiladi. Gap urg'usi — bu fonetikaning bir bo'lagi bo'lib, gap tarkibidagi so'zlarning turlicha kuch bilan talaffuz qilinishi hodisasidir. Gapda mazmuniy ahamiyatga ega bo'lgan so'zlar ko'proq urg'u bilan aytiladi, kam ahamiyatli so'zlar esa kuchsiz talaffuz qilinadi. Ingliz tilida gap urg'usi ma'no va axborot markazini ajratishda muhim rol o'ynaydi.[8].

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqolada fonetika bo'limi va uning tilshunoslikdagi o'zni keng yoritilgan. Fonetika nutq tovushlarining hosil bo'lishi, artikulyatsiyasi, akustik va auditor xususiyatlarini o'rganadi, shuningdek tovushlarni fonemalarga bo'lish, jaranglilik va ritmni aniqlash kabi masalalarni o'z ichiga oladi. Bo'g'in, urg'u, qo'sh va qator undosh tushunchalari nutqning tuzilishi va talaffuzni to'g'ri qilishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatildi. So'z urg'usi va gap urg'usi esa nutqning mazmuniy markazini belgilash va axborotni samarali yetkazishda muhim rol o'ynaydi. Fonetika tilni chuqur tushunish, talaffuzni rivojlantirish va nutq madaniyatini shakllantirishda muhim ilmiy va amaliy vosita sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, fonetika bo'limi til o'rganishda nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni ham shakllantiradi. Til o'rganuvchilar uchun tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, nutqni ravon va tushunarli yetkazish imkonini beradi. Fonetika yordamida talaffuzdagi xatolar aniqlanadi, ularni tuzatish yo'llari ishlab chiqiladi va nutq madaniyati oshiriladi. Bu esa nafaqat ona tilni mukammal bilish, balki chet tillarni o'rganishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://lex.uz>
2. Nargiza Erkaboyeva. O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami. Toshkent – 2021. 27-bet.
3. Nargiza Erkaboyeva. O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami. Toshkent – 2021. 40-bet.
4. Unlilar nazaryasi – <https://oefen.uz>
5. Ziyoyistagan qalblar uchun – <https://n.ziyouz.com>





6. Zulfumor Xolmanova. Tilshunoslik nazaryasi - 2020.
7. Wikipedia – <https://wikipedia.org>
8. Wikipedia – <https://wikipedia.org>
9. <https://uniwork.buxdu.uz>

